

YOSHLAR ONGIGA TA'SIR ETUVCHI SALBIY PSIXOLOGIK OMILLARNI BARTARAF ETISH CHORALARI

Jalilova Shahnoza Muxtorovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani,
56-maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi psixologik omillar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning bu jarayondagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, salbiy omillar, psixologiya, tarbiya, stress, ijtimoiy muhit, motivatsiya, profilaktika, ong

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongiga turli xil ijobiy va salbiy axborot oqimlari kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar muhiti va oilaviy tarbiya tizimi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ayrim salbiy psixologik omillar yoshlar ongiga zararli ta'sir ko'rsatib, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Salbiy psixologik omillar turlari

Yoshlar ongiga ta'sir etuvchi asosiy salbiy omillar quyidagilardan iborat:

- noto'g'ri axborot va yolg'on ma'lumotlar;
- internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontent;
- tengdoshlar bosimi va salbiy guruh ta'siri;
- oiladagi nizolar va tarbiyadagi beqarorlik;
- ruhiy zo'riqish va stress holatlari;
- e'tiborsizlik va ma'naviy nazoratning sustligi.

Salbiy omillarning oqibatlarini

Mazkur omillar yoshlar psixikasiga quyidagi salbiy ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin:

- o'ziga ishonchning pasayishi;
- agressiv xulq-atvorning kuchayishi;
- o'qishga va maqsadga bo'lgan qiziqishning susayishi;
- ijtimoiy muhitdan uzoqlashish;
- noto'g'ri qadriyatlarning shakllanishi;
- ruhiy beqarorlik va motivatsiya yo'qolishi.

Bartaraf etish yo'llari

1. Oila muhitini mustahkamlash
ota-onalar farzand bilan doimiy muloqotda bo'lishi;
ishonchga asoslangan tarbiya tizimini shakllantirish;
nazorat va mehr muvozanatini saqlash.
2. Ta'lim tizimi orqali tarbiya
maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;
psixologik treninglar va suhbatlar o'tkazish;
sog'lom turmush tarzi va axborot madaniyatini shakllantirish.
3. Psixologik yordamni rivojlantirish
maktab psixologining individual ishlari;
stressni boshqarish usullarini o'rgatish;
o'z-o'zini anglash va ijobiy fikrlashni rivojlantirish.
4. Ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish
yoshlar uchun to'garak va sport mashg'ulotlarini ko'paytirish;
madaniy va ma'naviy tadbirlarni tashkil etish;
salbiy axborotlardan himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati

Profilaktika ishlari yoshlar ongini salbiy ta'sirlardan himoya qilishda eng muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda oila, maktab, mahalla va davlat tashkilotlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom psixologik muhit yoshlarning to'g'ri rivojlanishini ta'minlaydi.

Yoshlar ongiga ta'sir etuvchi salbiy psixologik omillarni bartaraf etish jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularni ma'naviy, psixologik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. Faqat sog'lom muhit va to'g'ri tarbiya orqali yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish mumkin. Darhaqiqat, globallashtirish va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan - axborot jahon bozoridan munosib joy oldi. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bot-bot esga olinayotgani ham bejizga emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'shin soni, qurol-yarog' arsenali, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi.

Aslini olganda, axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalovchi barcha bilimlar sohasida qadimdan mavjud bo'lgan. Yalpi axborotlashtirilgan global tizimning dunyoga kelishi millatlar, xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga chambarchas bog'ladi. O'z navbatida, axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo'lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvish tug'dirayotganini ham alohida ta'kidlash joiz. Zero, eng so'nggi avlod kompyuterlari har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo'jizasi tufayli kishi yer yuzining xohlagan

nuqtasidagi odam bilan soniyalar ichida aloqa o'rnatishi, o'zini qiziqtirgan savollarga bir zumda javob topishi mumkin. Ana shu holatning o'zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiyu meyorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot huruji, axborot-psixologik urushi qiyofasida o'zini namoyon etmoqda.

Har bir shaxs o'z shaxsiy nuqtai nazari, qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiyruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida munosabat bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga mos axborotni qabul qiladi, tahlil etadi. Mushohada va tahlillar asosida shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada mazkur shaxs u yoki bu tarzdagi nuqtai nazarini shakllantiradi. Demak, har qanday axborotning mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan shaxs, jamiyat, davlat mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda, milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo'lgan ta'siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo'lib bormoqda. Insoniyat tomonidan to'plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o'n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoqda, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o'zgarmagan, qolaversa ta'limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o'zi informatsion stress ortishi xavfini tug'diradi. Miyaning o'z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishlash zaruriyati paydo bo'lsa bu kuchli asab zo'rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya'ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga to'g'ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo'lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo'shilsa miyani o'z o'zini himoyalash mexanizmi ishlamay qoladi, va inson o'zini informatsion stresslardan muxofaza qila olmay qoladi.

O'smirlar bunday holatda eng zaif ta'sirchan guruh sifatida namoyon boladi. Axborot-psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya

qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavsizlikka putur yetkazishi mumkin. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi.

Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatsion texnologiyalardan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni "Bosqichlar almashinuvi" nuqtai-nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi - "axborot sektori" yuzaga kelishi bilan bog'laydilar. Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib beradi.

XULOSA

O'zbekiston sharoitida axborot almashish jarayoni xavfsizligini ta'minlash uchun o'ylaymizki, axborot hurujlari sharoitida quyidagi vositalarga alohida e'tibor qaratish kerak: ya'ni axborotlashtirish vositalari faoliyatini, milliy o'zligimiz va manfaatlarimizga zamonaviy usullar orqali muvofiqlashtirish; shaxs axborot xavfsizligiga qarshi barcha zamonaviy vositalardan foydalanish; ichki va tashqi siyosatda ro'y berayotgan voqealarni yoritishda yangicha yondashuvlarni qo'llash; O'zbekistonning xalqaro aloqalarini tahlil qilish borasida tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, islohotlarning axborot ta'minotini ta'minlash ishida matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari harakatini birlashtirishga alohida e'tibor qaratish, barcha axborot ta'sirlar doirasini nazoratga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.
2. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. /Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Star – Poligraf. 2008
4. Ziyonet